



“Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida Shayx Najmiddin Kubro ta’rifi

Parmonova Sevara Ulug‘bek qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek
tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

parmonova.sevara@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasidagi Shayx Najmiddin Kubro ta’rifi o‘rganilgan bo‘lib, undagi hikoyatlarning mazmun-mohiyati hamda manbalarini o‘rganishga ahamiyat qaratilgan. Ma’lumotlar o‘z o‘rnida “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasining yaratilishiga asos bo‘lgan Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” tazkirasidagi tavsiflar bilan ham solishtirilgan.

Kalit so‘zlari: Navoiy, Jomiy, tazkira, shayx, laqab, murid, rivoyat.

Tasavvuf adabiyoti o‘zbek mumtoz nasrining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning taraqqiyoti, shakllanishi va g‘oyaviy asoslari ko‘plab yirik mutasavvif olimlar va adiblarning ijodi orqali namoyon bo‘ladi. Bu borada Alisher Navoiy tomonidan umrining so‘nggi davrlarida – 1497 (Hijriy 903) yilda yozib tugallangan “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat” tazkirasi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu asar, muallifning ustozlaridan biri – Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub “Nafahot ul-uns min hazarotil quds” asaridan ilhomlangan holda yozilgan bo‘lib, ustoz-shogirdlik an’anasi davomchisi sifatida Navoiy tazkiraga o‘zining boy badiiy va ruhiy tajribasini ham olib kirgan.

“Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasi avvalambor o‘zining mazmuniy boyligi, ruhoniylar talqini, valiylik hayoti va fazilatlarining o‘ziga xos uslubda tasvirlangani bilan e’tiborlidir.



Unda turli davrlarda yashab o'tgan 770 nafar yirik mutasavviflar hayoti, g'oyalari, ta'limoti yoritilgan. Alisher Navoiy Abdurahmon Jomiy tazkirasidagi deyarli barcha avliyolar nomini o'z tazkirasiga kiritgan bo'lsa ham, bu ikki allomaning ifoda uslubida ayrim farqlar ham ko'zga tashlanadi. Masalan, Jomiy avliyolar zikrini batafsil yoritish, mavjud bo'lgan ko'plab manoiqlarni o'z tazkirasiga batafsil kiritish yo'lidan brogan. Navoiy esa nisbatan ko'proq avliyolar nomini sanab o'tgan bo'lsa ham, ular haqidagi ma'lumotlar turli hajmda bo'lib, ba'zilar haqida bir jumla bilan kifoyalangan, ba'zi shayxlarning zikriga keng o'rin ajratganligini ko'rishimiz mumkin. Lekin shunga qaramay, Navoiy qayerda biror mashoyixning zikrida muxtasarlik yo'lidan borgan bo'lsa, o'sha yerda to'liqroq o'qish uchun Jomiy, Attor yoki Shayx Abdulloh Ansoriyning asarlariga murojaat qilish mumkinligini eslatib o'tgan.

Tazkirada ayrim mutasavviflar zikrini batafsil yoritish, ular bilan bog'liq ko'plab mashhur rivoyatlarni keltirish holatlari ham uchraydi. Masalan Markaziy Osiyodagi yirik tasavvufiy maktab asoschilaridan biri bo'lmish Shayx Najmiddin Kubroning tariqat yo'lidagi faoliyati, falsafiy qarashlari zikri “Nasoyim ul-muhabat”da bir necha sahifada batafsil yoritilgan.

Shayx Najmiddin Kubro haqida ma'lumot berar ekan, Navoiy Jomiy tazkirasida keltirilgan barcha hikoyatlarni o'z tazkirasiga kiritadi ya'ni ularni qisqartirish yoki to'liq o'qish uchun manba ko'rsatish yo'lidan bormaydi.

Najmiddin Kubroning Abul Jannob kunyati bilan mashhurligi, asl ismi Ahmad ibn Umar al-Xeva'iy ekanligi va “Abul Jannob” hamda “Kubro” laqabining qayerdan kelganligi haqida har ikki tazkirada ham ayni ma'lumot berilgan. Unga ko'ra, yigitlik davrida Najmiddin Kubro zohiriy ilm tahsiliga juda kirishgan bo'lib, kim bilan bahslashsa, albatta, uni yengar ekan. Shu sababdan unga “Tommatul Kubro” deb laqab qo'yishgan ekan. Ushbu laqabning ma'nosi “Nafahot ul-uns”da “Qattiq musht”, “Shiddatli zarba” deb izohlangan. [Cami, 2021: 525] Vaqt o'tishi bilan laqabdan birinchi so'z tushib, “Kubro” so'zining o'zi qoladi va barcha uni shunday atay boshlaydi.



“Abul Jannob” kunyasining qayerdan kelganligi haqidagi ma’lumotga manba sifatida har ikkala tazkirada Amir Iqbol Siyistoniyni piri Shayx Alouddavla (q.s.)ning soʻzlarini jamlab tuzgan kitobi koʻrsatilgan. Unda yozilishicha, Najmiddin Kubro avval Hamadonga, keyin Iskandariyaga borib hadis ilmini oʻrganib ijozat oladi. Qaytganidan keyin, bir kecha tushida Rasululloh (s..a.v.)ni koʻrib, ulardan oʻziga bir kunya berishlarini soʻraydi. Shunda Abul Jannob kunyasi ularga inʼom qilinadi. Najmiddin Kubro Rasuli Akramdan “Bir harf bilanmi yoki qoʻsh harf bilanmi” deb soʻraganida (“n” harfi nazarda tutilgan, yaʼni “Janobmi”, “Jannobmi” deya – P. S.), ul zot “Ikki harf bilan” deb javob beradilar. Shundan soʻng Najmiddin Kubro uygʻonib, bu kunyaning maʼnosini dunyodan ijtinob qilish (yaʼni tarki dunyo qilish) deb qabul qiladi va oʻziga pir, murshid axtarishga tushadi.

Najmiddin Kubroning avval Xuzistonlik Ismoyil Qasriy, keyin Shayx Ammor, undan soʻng Misrlik Shayx Roʻzbexonning qoʻlida tarbiya topgani, Shayx Roʻzbexon uning qalbidagi kibr ildizlarini batamom sugʻurib olgach, yana Shayx Ammorning qoshiga yuborgani har ikki tazkirada ham batafsil yoritilgan. Vaqt yetgach Shayx Ammor Najmiddin Kubroni Xorazm yurtiga pir sifatida yuboradi ammo Kubro buni dastlab rad etadi. Jomiy tazkirasida bunga sabab qilib “Najmiddin Kubro u yerda gʻalati-gʻalati insonlar bor, tasavvufni va qiyomat kunini inkor etadilar, dedi va borishni istamadi” degan izoh berilgan. [Cami, 2021: 527]. Ammo Navoiy tazkirasida ushbu sabab keltirilmagan.

“Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida Jomiy tazkirasida Kubro haqida yozilgan hikoyatlar, uning karomatlari, “valiytarosh” laqabini olish sabablari va boshqalar deyarli qisqartirishlarsiz, batafsil, keltirilgan. Ayniqsa, uning Xorazm diyoriga mogʻullar (Navoiy “tatarlar” deb atagan) bosqini davomida ham ruhan, ham jismonan koʻrsatgan jasorati, shahid boʻlishi tavsilotlarini oʻqigan har bir kishi toʻlqinlanadi. Jomiy tazkirasida Kubroning oʻlim oldidan dushmanning parchamini ushlab olgani, hatto oʻlimidan keyin ham uni hech kim boʻshata olmagan bayoni berilgan. Navoiyda esa voqea quyidagicha



keladi: “Derlarki, shahodat zamoninda bir kofirning parchamin tutqan ermishlar. Andoqki, shahodatdin so'ngra o'n ikki kishi ayra olmadilar va ul parchamni kesib ayirdilar.” [Навоий, 2017: 332].

Ushbu rivoyatda kelgan parcham so'zi alohida diqqatga sazovordir. Turk tilida “perçem” deb yoziluvchi ushbu so'z turkcha-o'zbekcha izohli lug'atda “Yo'l”, “Kokil” deb tarjima qilingan va “Sochlarni kaltalatganda peshona qismida qoldiradigan soch tutami, kokil” degan izoh berilgan. [Ўзбекча-Туркча ва Туркча-Ўзбекча изоҳли луғат, 1997: 516]. Ko'plab qadimgi turkiy manbalarda (masalan, O'rxun-Enasoy bitiklari, “Devon-u lug'otit-turk”, “Qutadg'u bilig” kabilarda ham bu so'z uchraydi) kelishicha, parcham, ya'ni peshona kokili yigit kishi uchun o'ta qiymatli hisoblangan va agar dushman uni tutib olsa, mag'lubiyatga uchraganlik belgisi sifatida qaralgan. Bundan kelib chiqadiki, Najmiddin Kubro garchi jon berib mag'lubiyatga uchrasa ham, aslida dushman kokilini tutib olib, uni mag'lub etgan.

“Parcham” bilan bir qatorda “tug'” (ya'ni bayroq) ham qadimgi turkiy manbalarda jang qiluvchi kishi va davlat sharafiga bildiruvchi belgi sifatida ifodalangan. Shunga ko'ra, ayrim rivoyatlarda Najmiddin Kubro dushmanning sochini emas, balki bayrog'ini tutib olgani haqida aytilgan. Jomiy va Navoiy Kubro ta'rifini Jaloliddin Rumi qalamiga mansub, Najmiddin Kubroga ishorat qilingan deb hisoblanuvchi ushbu she'riy parcha bilan tugatganligi ham bejiz emas:

گ یرند ساغر که مد تشماد یم آن از ما
گ یرند لاغر بر که م فل سکان آن از نه
ن و شدند ای مان خالص می دست ی کی به
گ یرند کاف ر پ رچم ذکر دست ی کی به

(“Biz qadah ko'taruvchi aslzodalar safidanmiz,

Oriq echkiga haridor bo'lgan qashshoqlardan emas.



Biz kabilar bir qo'lda imonning toza sharobini ichib,

Ikkinchi qo'l bilan kofirning tug'ini ushlaydilar.”) [Навоий, 2017: 332].

Alisher Navoiy Najmiddin Kubro ta'rifining so'nggida uning jahonga mashhur va zamonda zagona bo'lgan ko'plab muridlari borligini ta'kidlaydi. Ular qatorida Shayx Majduddin Bag'dodiy, Shayx Sa'duddin Hammuyiy, Bobo Kamol Jandiy, Shayx Roziyuddin Ali Lola, Shayx Saffiddin Boharziy, Shayx Najmiddin Roziy va Shayx Jamoliddin Giliy nomlari sanab o'tiladi. Shuningdek, ba'zilarning ta'kidlashicha, Hazrat Jaloliddin Rumi (q.s.)ning padari Mavlono Bahouddin Valad ham, Kubroning muridlaridan hisoblangan, deydi Navoiy va Shayxning zikrini uning hijriy 618-yilda vafot etgani bilan yakunlaydi.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasi Shayx Najmiddin Kubro va boshqa yuzlab shayx-avliyolarning hayoti, faoliyati, o'g'itlari hamda ruhiy tajribalari bayoni berilgan muhim manbalardan biri bo'lib, tasavvuf tarixi va adabiyotini o'rganishda o'z davridan tortib, bugungi kungacha ahamiyatini yo'qotmagan noyob asarlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Навоий А. Насойим ул-муҳаббат. 15-том. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1968. –225 б.
2. Навоий Алишер. Насойимул муҳаббат мин шамойимил футувват. –Т.: Мовороуннахр, 2017. – 575 б.
3. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 17-том. –Т.: Фан, 2001.
4. Аттор Фаридуддин. Тазкират ул-авлиё. – Тошкент: Фафур Фулом, 2013. – 464 б.
5. Cami Abdurrahman. Nefahatü'l-üns min hadarati'l-kuds. – İstanbul: Salih kitaplar, 2021. – 768 s.
6. Ўзбекча-Туркча ва Туркча-Ўзбекча изоҳли луғат. –Тошкент: Фан, 1997.